

O‘ZBEK TILI VA UNING TILLAR TIZMIDAGI O‘RNI**Ismatillayeva Kamola Raxmatilla qizi***Ismatillayeva Kamola Raxmatilla qizi 103 -guruh talabasi**Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti. Fakultet: Maxsus pedagogika va inkluziv ta'lim Yo'nalish: Logopediya***Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna***Ilmiy rahbar: Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti. O'zbek tili va uni o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilning jamiyatda tutgan o'rni haqida to'xtalgan. O'zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeiga, dunyo tillari orasida o'zbek tilining o'rni haqida ma'lumot keltirilgan.

Kalit so'zlar: ona tili, ma'naviyat, davlat tili, adabiyot, o'zbek tili.

Annotation: This article focuses on the role of the Uzbek language in society. The position of the Uzbek language as a state language and the place of the Uzbek language among the languages of the world are given.

Key words: mother tongue, spirituality, state language, literature, Uzbek language.

O'zbekiston Respublikasida Davlat tilining ahamiyati va uning xalqimiz hayotidagi o'rni benihoya kattadir. 1989 yil 21 oktabrda O'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishi - xalqimizning milliy mustaqillikka erishish yo'lidagi muhim qadamlardan biri bo'lib, ona tilimizning bor go'zalligi va jozibasini to'la namoyon etish bilan birga, uni ilmiy asosda rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar yaratdi. Shuningdek, davlat tilining boyitilishi va takomillashtirilishi taminlabgina qolmay, O'zbekiston hududida istiqomat qiluvchi va mamlakatimizga xorijdan kirib kelayotgan barcha millat va elatlarning tillarini hurmat qilinishini taminladi. Chegara bojxona postlari orqali yurtimizga kirib kelayotgan chet el fuqarolari o'zbek tilida yoki boshqa jaxon tillarida yo'lovchi bojxona deklaratsiyalarini to'ldirishlari va muloqotda bo'lishlari mumkin bo'ldi. Bugun chegara bojxona postlarida fuqarolarga ko'rsatmalar, ma'lumotlar, xabarlar va yo'lovchi bojxona deklaratsiyalari o'zbek, rus va ingliz tillarida yetkazilishi yo'lga qo'yilgan. Bu ham boshqa davlatlardan tashrif buyuruvchilarga qulaylik va ularning tillariga nisbatan hurmatni bildiradi.

Ma'lumki, "O'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili bu millatning

ruhidir”. Shunday ekan, ma’naviyatning ko’zgusi bo’lgan ona tiliga bo’lgan munosabat shaxsning ma’naviyatga bo’lgan munosabatini ham belgilaydi, desak mubolag’a bo’lmaydi. Kamol topayotgan yosh avlodga ona tiliga e’tibor va ehtirom, unga davlat tili sifatida qarashning ma’suliyati kabi tuyg’ularni singdirish va mustahkamlab borish dolzarb muammolardandir. Ona tili - millatning ruhidir. Til - davlat timsoli, mulki. Tilni asrash, rivojlantirish-millatning yuksalishi demakdir. Xalqning Vatani, davlati kabi yana bir buyuk, ehtimolki, birlamchi boyligi bor. Bu uning tili. Aynan til odamlar guruhini bir millat sifatida biriktiradi, ya’ni xalqni, xalq, millatni, millat qiladi. Ulug’ mutafakkir shoir hazrat Alisher Navoiyning o’zbek xalqi ma’naviyat dunyosi, tilining shakllanib, rivoj topishida xizmatlari katta bo’lgan. Navoiyning asarlari orqali ona nilimizga bo’lgan mehr- muhabbatimiz oshdi. Bugun bizning Vatanimizda ham chet tillarini o’rganishda zarur shart-sharoitlar yaratilishi bilan birga o’z ona tilini chuqur bilish masalasiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. O’zbekistonda garchi davlat tili sifatida o’zbek tili ko’rsatilgan bo’lsada, boshqa millatlarning nafaqat tili, balki urf-odatlar ham alohida hurmat qilinadi. Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, o’z tilini hurmat qilgan boshqalarning ona tiliga ham chuqur hurmat bilan qaraydi. O’zbek xalqi shundayin bir chamanzorki, uning bostonida gul ko’p, chechak ko’p. Bu bo’stonda bir-biriga o’xshamaydigan, bir-birini takrorlamaydigan tillar avlodi kundan-kunga rivojlanib boraveradi. Mana shu tillar ichida eng chiroylisi va qadimiysi o’zbek tilidir. Avvalo, har bir inson o’z ona tilini bilishi kerak. Insoniyat jamiyatining shakllanishida tilning o’rni beqiyos. Til jamiyat uchun, insonlar uchun xizmat qiladi. Shuning uchun u ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Til yakka odamga emas, balki butun jamiyatga daxldor bo’lib, shu jamiyat a’zolari yordamida shakllantirilib boriladi. Til xalqlar millatlar o’rtasida ko’prik vazifasini o’tagan. Til ijtimoiy hodisa deb shuning uchun aytadilar. Dunyodagi tillar kelib chiqishi, lug’aviy va grammatik jihatdan yaqinligiga qarab bir necha til oilalariga bo’linadi. Yer yuzida 20-ga yaqin til oilasi bor. Til oilalari o’z navbatida til turkumlariga bo’linadi. Turkiy tillarning katta oilasiga mansub bo’lgan o’zbek tilining tarixi xalqimizning ko’p asirlik orzu-intilishlari, dardu armonlari, zafarlari bilan uzviy bog’liq. O’zbek tilining jozibasi momolarimiz allasi, maqomlarimiz , ertak va afsonalarimiz, romanu dostonlarimizning sehrli satrlarida , jiloli ohanglarida aks etgan. Tarixga nazar solsak , buyuk ajdodlarimiz , ota-bobolarimiz aynan ona tilimiz orqali jahonga o’z so’zini aytgan hamda nodir ma’naviy meros , qadriyatlarimizga asos solganligiga guvoh bo’lamiz. G’afur G’ulom ko’p tilni bilishning xosiyati haqida shunday deydi: “Hayotda ko’p tilni bilish chuqur bilim olmoqchi bo’lgan yoshlar uchun juda zarur. Inglischa, nemischa, fransuzcha, italyancha tillarni bilish dunyo madaniyati xazinasiga yo’l ochadi. Shekspirni, Bayronni, Shillerni, Gyoteni, Dantenini asl nusxasida o’qiy olish katta fazilat-

ku”. Til millatimizning borlig‘i, qalbimizning quyoshidir. Til adabiyotni yashnatadigan, millatning ruhiy boyligini oshiradigan ijtimoiy hodisadir. Til yashasa millat ham, adabiyot ham yashaydi. Til bilgan-el biladi. Har qanday tilni o‘rganish uchun avval shu tildagi so‘zlarni bilib olish kerak bo‘ladi. Buning uchun esa shu tildagi gap tuzish,so‘zlarni bog‘lash, qonun qoidalarni bilish kerak. Tildagi tovushlar talaffuzini yaxshi o‘zlashtirib, so‘zlarni to‘g‘ri aytish ham til o‘rganishda juda muhimdir. Ona tilim menga g‘urur va iftixor tuyg‘usini bag‘ishlaydi. Xalqlar o‘rtasidagi birlik, ahillik hurmat tilni bilishdan boshlanadi. Tilga ixtiyorsiz-elga e‘tiborsiz. Til bilan ko‘ngilni doimo bir tutish kerak. Chunki har bir millatning tili yaxshi insonlar qatoridan suv ichib turadi.

O‘zbek tilining imkoniyatlari shu qadar kengki unda nasr va nazm uchun kerakli bo‘lgan go‘zal va nafis uslublarni topish mumkin. Tilga bo‘lgan muhabbat tuyg‘usi ona suti bilan qonga kiradi. Tilimiz bizning ruhiy boyligimiz, ma‘naviy borligimizdir. Millatni yashnatib, uni dunyoga tanitadigan asosiy vosita til desak adashmagan bo‘lamiz. Tilga bo‘lgan muhabbat tuyg‘usi har bir insonning qalbida josh urib to‘lqinlanib turmog‘i lozim. Ushbu qutlug‘ ayyom 1989-yil 21-oktabr sanasi – “Davlat tili haqida” gi qonun qabul qilingan kun ma‘naviy jasorat, ezgu maqsadlar ro‘yabi bo‘lgan kunligi bilan ahamiyatlidir. Ilm-fan, texnika aqlbovar qilmas darajada rivoj topganiga qaramasdan , dunyo hamjamiyati sayyoramizda nechta til borligi haqida aniq ma‘lumotga ega emas. Ba‘zi ma‘lumotlarga ko‘ra , dunyo tillarining soni 7 mingdan oshadi. Mazkur tillardan 14 tasida insoniyatning uchdan ikki qismi gaplashadi. Uhbu tillarning har birida so‘zlashadiganlar soni esa 50 milliondan ziyod. Dunyodagi 70 tilda gaplashadiganlar 5 milliondan ko‘p bo‘lsa qolgan tillarda muloqot qiladiganlar 1 milliondan kam. Ularning faqat 200 ga yaqini davlat tili yoki rasmiy til maqomiga ega. Shu nuqtayi nazardan qaraganda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi huquqiy jihatdan muhrlab bergan mazkur qonunning xalqimiz hayotidagi o‘rni beqiyosdir. Bunday nufuzga ega bo‘lgan o‘zbek tili asrlar sinovidan o‘tgan , qiyomiga yetgan va boshqalarga ibrat bo‘la oladigan til sanaladi. Bugun O‘zbekiston hukumati tomonidan olib borilayotgan siyosat buni amalda ko‘rsatmoqda. Yurtimiz bo‘ylab va xalqaro maydonlarda ona tilimizda yangrayotgan Davlat madhiyasi ham qalblarimizda vatan tuyg‘usini jo‘sh urdiradi.

Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta‘minlash, bu borada avvalo o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrabavaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir. Davlatimiz rahbarining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni millat tarixida tarixiy hodisa bo‘ldi desak, yanglishmaymiz. Chunki mazkur farmon asosida uzoq yillar yig‘ilib qolgan muammolar yechimini topyapti, har yili oktabr oyida mutaxassislar tomonidan kuyinchaklik bilan aytilib, so‘ngra qog‘ozlarda qolib ketgan takliflar, tavsiyalarning hukumat doirasida e‘tiborga olinishi o‘chib borayotgan umid uchqunlarini yana yondirdi. Prezidentimiz tomonidan o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi

mavqeyini oshirish bo'yicha qator vazifalarning qo'yilishi tilimizga bo'lgan hurmatning yuksak namunasidir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, tilni sevis, uni ardoqlash, millatni sevis va uni qadrlash bilan teng hisoblanadi. Har qaysi xalqning turmush tarzi, urf-odatlar, madaniyati uning tilida o'z ifodasini topadi. Til millat ko'zgusi, deb bejiz aytilmagan. Xalqimizning necha asrlig boy tarixi, ko'hna va serqirra madaniyati o'zbek tili ta'sirida shakllangan. Ulug' shoirimiz Alisher Navoiy shu tilda bebaho asarlar yaratib, dunyoni lol qoldirgan. Bugungi kunda jahonning barcha mamlakatlarida davlatimiz delegatsiyalari tashrifi, yoshlarimiz yutuqlari, sportchilarimiz g'alabalari sharafiga o'zbek tilida madhiyamiz kuylanayotir. Darhaqiqat, til millatning ulkan boyligi va bebaho mulkidir. Boisi milliy tilda xalqning ma'naviy-madaniy hayoti, ajdodlarning dunyoqarash va tafakkuri, boy ilmiy va ijodiy merosi mujassam bo'ladi. Dunyodagi barcha ezguliklar ona allasi orqali farzand ong-u shuuriga ona tilida singadi. Istiqlo, milliy g'urur kabi tushunchalar ham ona tili bilan chambarchas bog'langan. Shu sababdan o'zligini saqlab qolishga intilgan har bir xalq, millat ona tilini asrabavaylashni va avlodlarga uni rivojlantirgan holda yetkazishni o'zining muqaddas burchi deb biladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.10.2019-y., 06/19/5850/3939-son
2. Abduraxmonov G, Shukurov Sh. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. T., 2008.
3. Turdieva K, Axmedova D. O'zbek tili. T., 2007.
4. <https://lex.uz/docs/-57013>
5. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqidagi" gi qonuni " O'zbek tilining yangi qonunlari" –To'plam T.:1998, 20-30 bet
6. Shodmonov E, Rafiev A, G'oyipov "O'zbek tili" (darslik) T.:1995
7. Rasulov R, Mirazizov A " O'zbek tili " (o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining boshqa tillarda olib boriladigan guruhlar uchun o'quv qo'llanma) T.: 2006.
8. Nasrullayev, E. (2021). ISTIQLOL DAVRI DRAMATURGIYASIDA NAVOIY TALQINI. Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalar, (Архив№ 1).
9. Файзиллаева, С., & Тахирова, М. А. (2025, April). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ИЗУЧЕНИИ НАРЕЧИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА. In CONFERENCE OF MODERN SCIENCE & PEDAGOGY (Vol. 1, No. 1, pp. 237-240).
10. Яценко, В., & Тахирова, М. А. (2025, April). ОСНОВНЫЕ ПОДХОДЫ К КЛАССИФИКАЦИИ ЭЛЛИПТИЧЕСКИХ КОНСТРУКЦИЙ. In CONFERENCE OF MODERN SCIENCE & PEDAGOGY (Vol. 1, No. 1, pp. 67-68).